

3.  $10 \cdot 288$  sekundni soat, minut va sekundlarda ifodalang.  
 4. Berilgan ikki xonali son xonalarining ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.  
 5. Berilgan uch xonali son xonalarining yig'indisi va ko'paytmasini hisoblash dasturini tuzing.

Berilgan	Ifoda	Natija
897	$8+9+7$ $8*9*7$	24 504

6. Qisqartirilgan amallarni qo'llagan holda, quyidagi dastur natijasini chiqaring.

Berilgan	Ifoda	Natija
<b>a=8</b> <b>b=5</b> <b>c=9</b>	<pre>a=int(input()) b=int(input()) c=int(input()) a-=b a*=c a+=(b*c+b) print(a)</pre>	

7. Quyidagi ifodani Python tilida yozing:

$$y = \frac{7}{x^2+x+1} + x^2$$

## 36-DARS. PYTHONDA SATRLAR BILAN ISHLASH

Python matn va uning qismlari bilan ishlash uchun eng qulay dastur hisoblanib, uning yordamida satrlarni bir-biriga bog'lash yoki satr ichidan biror qismini qirqib olish mumkin.

### BUNI BILASIZMI?

- 1. Satr nima?
- 2. Satr orasidan qism satr qirqib olish mumkinmi?
- 3. Satr uzunligi qanday aniqlanadi?

### Satrli o'zgaruvchilarni yaratish va satrlar bilan ishlash

**Satr** – harf, son va belgilar hamda probeldan tarkib topgan belgilar ketma-ketligi. Satrlarni o'zgaruvchilar yordamida kiritish mumkin. Pythonda satrlar bittalik va ikkitalik qo'shtirnoqlar orqali beriladi.

Satrlar ustida keng bajariladigan amallardan biri bu – birlashtirish amali. Satrlarni birlashtirish uchun `+` amali qo'llaniladi.

### Tayanch tushunchalar

**Satrlar** – qo'shtirnoq ichiga olingan Unicode kodidagi belgilarni ketma-ketligi.

### Eslab qoling!

Satr uzunligini `len()` funksiyasi yordamida aniqlash mumkin. Phyton barcha belgi va probellar sonini o'zi hisoblab chiqaradi.

```
>>> a='Bahor!'
>>> len(a)
```

6

```
>>> a = 'Good morning!'
>>> b = 'Welcome.'
>>> c=a + b
>>> print(c)
```

Good morning! Welcome.

```
>>> c = a+'Dear pupil.' + b
>>> print(c)
```

Good morning! Dear pupil. Welcome.

Pythonda bitta so'zni ekranga bir necha marta chiqarish imkoniyati mavjud bo'lib, buning uchun uni bir marta yozishning o'zi kifoya.

```
>>> a = 'Hello!'
```

```
>>> print(a * 10)
```

Hello! Hello! Hello! Hello! Hello!
Hello! Hello! Hello! Hello! Hello!

### Qism satrlarni belgilash

Satrdagi har bir belgining o'z raqami bo'lib, u belgining turgan o'rnini anglatadi. Bunday raqam belgining turgan o'rnini aniqlash yoki uni satrdan qirqib olish uchun kerak bo'ladi. Pythonda satrdagi belgilarni raqamlash 0 dan boshlanadi va bu raqam indeks deb ataladi.

0	'	Z	B	E	K	I	S	T	O	N
0	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Satrdan nafaqat belgi, balki qism satrni ham qirqib olish mumkin. Buning uchun quyidagi sintaksidan foydalanamiz:

a[index] – a satrdagi **index**da turgan belgini qirqib oladi.

a[:end] – a satrdan 0 indeksdan boshlab **end** indeksgacha bo'lgan belgilar ketma-ketligini qirqib oladi;

a[start:end] – a satrdan **start** indeksdan boshlab **end** indeksgacha bo'lgan belgilar ketma-ketligini qirqib oladi;

a[start:] – a satrdan **start** indeksdan boshlab oxirigacha bo'lgan belgilar ketma-ketligini qirqib oladi;

a[start:end:step] – a satrdan **step** qadam bilan **start** indeksdan boshlab **end** indeksgacha bo'lgan belgilar ketma-ketligini qirqib oladi.

```
>>> a = "O'ZBEKISTON"
>>> a[4]
'E'
>>> a[3:6]
'BEK'
>>> a[:6]
'O'ZBEK'
>>> a[6:]
'ISTON'
>>> a[3:10:3]
'BIO'
```

4 indeksdagi belgini chiqaradi.

3 indeksdan 6 indeksgacha bo'lgan belgilar ketma-ketligini chiqaradi.

0 indeksdan 6 indeksgacha bo'lgan belgilar ketma-ketligini chiqaradi.

6 indeksdan oxirigacha bo'lgan belgilar ketma-ketligini chiqaradi.

3 indeksdan 10 indeksgacha bo'lgan belgilar ketma-ketligini 3 qadam bilan chiqaradi.